


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oyida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oyida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **16,3** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,2 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 126 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 115,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 101,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 110,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 102,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) ko'payishiga sabab bo'ldi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




15,0 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



19,7 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



20,0 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




2,0 foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021-yilning 1- aprel holatiga ko'ra 392 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94 taga yoki 31,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 344 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 25,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 26 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 72,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021-yilning 1- aprel holatiga ko'ra 10 813 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 984 taga yoki 22,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 047 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 765 taga yoki 21,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 608 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 220 taga yoki 26,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 191 tani tashkil etib, ulardan 184 tasi yoki 96,3 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 16 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	69	83	117	168	184
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	8	14	19
Sanoat	52	60	82	105	117
Qurilish	2	4	7	10	12
Savdo	5	9	11	27	24
Tashish va saqlash	2	3	4	6	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	1	1
Axborot va aloqa	-	-	-	2	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	3	7

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	184	121	63
Guliston sh.	46	30	16
Yangiyer sh.	21	9	12
Shirin sh.	5	5	-
Oqoltin	5	2	3
Boyovut	7	3	4
Sayxunobod	11	6	5
Guliston	5	4	1
Sardoba	10	7	3
Mirzaobod	12	7	5
Sirdaryo	51	42	9
Xovos	11	6	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 51 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 27,7 %), Guliston shahrida 46 ta (25,0 %), Yangiyer shahrida 21 ta (11,4 %), Mirzaobod tumanida 12 ta (6,5 %) hamda Sayxunobod tumanida 11 tani (6,0 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,6 %), Yangiyer shahri (6,6 %), Shirin shahri (2,5 %), Sirdaryo (14,5 %), Sayxunobod (7,9 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,2 %), Oqoltin (5,6 %), Xovos (5,7 %), Sardoba (5,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yil yanvar-mart oyida, birlikda)

2021-yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (27,0 %), Yangiyer shahri (4,2 %), Shirin shahri (3,3 %), Sirdaryo (17,7 %), Sayxunobod (6,7 %), Boyovut (9,1 %), Guliston (6,5 %), Mirzaobod (7,8 %), Oqoltin (6,1 %), Xovos (5,3 %), Sardoba (6,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,4 %), Yangiyer shahri (7,8 %), Shirin shahri (2,4 %), Sirdaryo (16,7 %), Sayxunobod (8,2 %), Boyovut (7,3 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (8,9 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos (5,9 %) va Sardoba (5,3 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni


(2021-yilning yanvar-mart oyida, birlikda)




2021- yilning yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (29,9 %), Yangiyer shahri (11,5 %), Shirin shahri (3,8 %), Sirdaryo (23,1 %), Sayxunobod (7,7 %), Boyovut (7,7 %), Guliston (15,4 %), Mirzaobod (3,8 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar-mart oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining www.sirstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (67) 236-86-37